



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAROSIMLAR TASVIRLANGAN MATN TURLARI

Aslonova Gulhayo Marat qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18996823>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 11-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 13- mart 2026 yil

KEY WORDS

marosimlar, madaniyat, folklor, xalq, komponent, avlod, o'zbek va ingliz adabiyoti.

ABSTRACT

Maqolada ingliz va o'zbek marosimlariga oid matnlar ko'pincha og'zaki badiiy shaklda yaratilgani, poetik nutq hosilasi ekani, ularning har biri o'ziga xos leksikaga egaligi, shu so'zlar vositasida axborot uzatishga moslangan ilmiy- ommabop, etnofol'kloristik matnlar ham yaratilgani asoslangan, hamda marosim matnlari orqali fol'klorda "matn" tushunchasi, unda til va nutqning munosabati, arxaiik va zamonaviy leksik qatlamga egaligi, she'riy va nasriy turi, ko'p funksiyaliligi, tuzilishi jihatidan serqatlam integrasion hodisa sifatida iyerarxik munosabatlarni ifoda etishi tufayli tarjimada muammolar keltirib chiqarishi aniqlangan.

Marosimlar izohlanuvchi matnlar orqali ularning kelib chiqish tarixini, o'tkazilish maqsadi va tarzini bilib olish, bu marosimlar jarayonida amalga oshiriladigan rituallarni chog'ishtirish natijasida ularning bir-biriga o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash imkoni tug'iladi. Shuningdek, marosim jarayoni, marosim ovqatlari, ularning tayyorlanishi, dasturxonga tortilishi, turlari, milliylik, lokallik kasb etishi oydinlashadi. Marosim predmetlari xalqning yashash joyiga, madaniy turmush tarziga, e'tiqodiy qarashlariga binoan farqlanishi ayonlashadi. Xususan, marosim fol'kloridan iborat verbal komponent og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga o'tish jarayonida variantlashishi kuzatiladi. Marosimiy matnlarda qo'llanuvchi so'zlar xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog'liqligi sababli ularning boshqa tillarda ekvivalentlari mavjud bo'lmaydi. Bunday so'zlarni tarjimada berishda olim va tarjimonlar transliterasiya, izoh berish kabi tarjima usullaridan ko'proq foydalanishlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek marosimlarining inglizcha o'girmalarida ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-da, xorijlik o'quvchilar milliy marosimlarimiz haqida ayrim ma'lumot bilan tanishtirilgan.

Matnning eng muhim turi adabiy matndir. Shuningdek, matnlar diaxron va sinxron aspektida o'rganishni taqazo etadi. Bu esa uning qadimiy, mumtoz, zamonaviy tiplari borligidan darak beradi.

Matnlar ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy turlarga ham bo'linadi. Bundan esa ularning badiiy va badiiy bo'lmagan ko'rinishlari borligi anglashiladi. Bu kabi matnlar o'rtasidagi asosiy farqlarni ochib berish uchun badiiy matnni tashkil etish tamoyillari tekshiriladi. Badiiy adabiyot lingvopoetik tadqiq usuli

orqali o'rganiladi. Bunda asosiy e'tibor ijodkorning dunyoqarashi, voqelikka hissiy-modal munosabati, ijodiy tafakkurining o'ziga xosligi, tili kabilarga qaratiladi.

Badiiy matn nazariyasining asosiy qoidalari shundan iboratki, uning asosini dunyoni obrazli idrok etish tashkil etadi. Badiiy matnlar she'riy, nasriy, dramatik turda yaratilishi ma'lum.

Badiiy matnni tashkil etish o'ziga xos murakkablik va ko'p funksionallik bilan ajralib turadi, u nutq aloqasining boshqa turlarida yuklanmagan, ahamiyatsiz bo'lib qoladigan jihatlar va darajalardan faol foydalanadi, buning natijasida badiiy matnning tuzilishi ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'ladi. Qatlamlar orasidagi o'ziga xos ierarxik munosabatlar bilan birlashib ketadiki, bu ko'pincha tarjimada tarjimon tomonidan katta ijodiy kuch talab qiladi.

Badiiy matnni (yoki umuman, har qanday matnni) lingvistik tahlil qilishning chuqur ma'nosini idrok etishga yordam beradi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda adabiy matnning sintaktik tahlili tashkil etilishida postmodernizmning sof madaniy paradigmasi bilan bog'liq bo'lgan tubdan yangi hodisalar qayd etildi. Badiiy matn madaniyatning "ikkinchi paradigmasini" o'z ichiga oladi, unda matnning yaxlitligi va uyg'unligida ataylab yo'q qilinishi namoyon bo'ladi; daraja ichidagi sintaktik interferensiyaturli shakllarda, xususan, intertekstuallikda namoyon bo'ladi.

Marosim matnlari estetik ahamiyat kasb etadi. Ular dastlab bir muallif matni sifatida yaratilgan bo'lsa-da, keyin og'izdan-og'izga, avloddan avlodga

o'tishi natijasida ko'pchilik, turli mualliflar yaratgan matnga aylanadi.

Marosim matnlari til va nutq hodisasi, kishilarning poetik tafakkuri mahsuli sifatida ko'plab tadqiqotchilar (tilshunos, adabiyotshunos, fol'klorshunos, etnograf, faylasuf, tarixchi, san'atshunos va boshqalar)ning tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Marosim matnlarida mualliflar biror-bir real voqelikka yoki e'tiqodiy ishonchga munosabatini so'z orqali yetkazish imkoniga ega bo'ladilar. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, marosimlarga oid tushunchalar ularga oid atributlarni ifodalovchi so'zlar orqali dekodlanadi. Bunda marosim matni, uning subtekst mazmuniga bir qator germenevtik ko'rsatkichlar ham qo'shiladi. Marosimga aloqador matnlarda xalq urf-odatlar, rasm-rusmlari nomlari lingvokul'turema (madaniyatni aks ettiruvchi so'zlar), etnografizmlar (xalq turmushini aks ettiruvchi so'zlar) qo'p qo'llanishi bilan e'tiborni tortadi, shuning uchun ularni tushinishda madaniyatshunoslik, etnografiya, dialektologiya bilan ham bog'liq holda ishlashga to'g'ri keladi.

Marosimlarni izohlovchi ilmiy yoki ilmiy-ommabop matnlar yoki ularning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi badiiy matnlar yaratiladimi, bunda ularga oid tushunchalarni ifodalovchi leksik-semantik hamda stilistik birliklardan, sintaktik qurilmalardan foydalaniladi. Doirasi cheksiz, xilma-xil bunday germenevtik ko'rsatkichlar yangi komponentlar hisobiga to'ldirilib boriladi. Bu ko'rsatkichlar ko'pincha leksik bo'ladi va katta-kichik kontekstda tasvirlanadi, talqin qilinadi. Bu kabi leksik signallar muayyan bir marosimning o'tkazilish holati, tuzilishi, maqsadi, vazifalari haqidagi ma'lumotlarni etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir bor ta'kidlab o'tish kerakki, marosimlarga oid konseptual leksik birliklar unga oid matnlar tuzilishida asosiy tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha

ularning matn yaratuvchi xususiyati konsepsiya sohasining leksik tarkibiy qismlaridan biri sifatida sarlavhada ham joylashadi. Badiiylikka ega matnlar yaratilishida poetik ifoda, tasvir vositalari dinamikasi muhim rol o'ynaydi. Badiiy matnlarning tuzilishida yaratuvchi (muallif)ning pozitsiyasi ajratib olish lozim. Fol'klor matnlarida bunday pozisiya xalqqa tegishli bo'ladi. Bunda uch xil munosabat aks yetadi: Matn yaratuvchisi (xalq);

Matn ijrochisi (qo'shiqchi, go'yanda, o'lanchi va h.k.); matn tinglovchisi (xalq).

Mana shular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali matndan foydalanish pozitsiyasi oydinlashadi. Chunki marosim matnidani xalq vakillari

o'z nuqtai nazarini signallarini alohida e'tiborga olib, izlaydi va foydalanadi.

Marosim matnlari bo'laklarini uning tarkibida kompozitsion jihatdan yonma-yon kelganturli (tovush, so'z, so'z birikmasi, gapdaniborat) takrorlar, sinsemantik so'zlarning aktual izasiyasi, sarlavha va boshqalar tashkil qiladi.

Marosim badiiy matnlari qaysi shaxs tilidan yaratilgani bilan ham ajralib turadi. Bunda ko'pincha "men"ning shaxsiy shakli struktura hosil qiluvchi xususiyatga aylangani kuzatiladi.

Lekin ikkinchi shaxsga murojaat ko'rinishida yaratilgan marosimga oid badiiy matnlar ham mavjud.

Ba'zi shunday matnlarda atrofdagi olam manzarasi, tevarakdagi voqealarga ob'ektiv baho berish holati kuzatiladi. Ularda hikoyachi uchinchi shaxs bo'ladi.

Matnlar turli xil nutq turlarini o'rganishga ham qaratilgan. Ularga qarab nutqning siyosiy, ommaviy-axborot, biznes, ilmiy, pedagogik, diniy, tibbiy, memuar, shaxsiyatga yo'naltirilgan va boshqa turlarini ajratish mumkin.

Tildan foydalanib, nutqni tashkil etish, tilning tabaqalanishi va taraqqiyot xususiyatlarini anglashda matn turlari ishonchli ob'ekt rolini o'tay oladi. Bunda matndagi sintagmatik va paradigmatic bog'lanishlar, umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi, yaxlitligi, vaziyatlilik, denotativ birlik belgilariga ega bo'lgan maxsus superfaza birliklar to'liq talqin etiladi.

Matn muammosining ko'p qirraliligi o'z ifodasini matnlar turi va badiiy matnning xususiyatlariga oid fikrlarning pluralizmida topadi. Ammo, tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganidek, matnlar tipologiyasining asosini tashkil etishi kerak bo'lgan umumiy mezonlar hali etarli aniqlanmagan. Matn assosiativ tafakkur qonuniyatlari asosida qurilganligidan, unda mavjud bo'lgan hayotiy voqealardan kelib chiqiladi. Ulardan biri marosimlar bilan bog'lanadi.

Xullas, matn ma'no asosida birlashtirilgan, izchillik va yaxlitlikka ega, lingvistik belgilar ketma-ketligidan tashkil topgan ko'p o'lchovli hodisadir. Shu sababli matnni semiotikada har qanday belgi birliklari ketma-ketligi

sifatida va lingvistik semiotika doirasida to'g'ri - og'zaki yoki yozma og'zaki belgilar ketma-ketligi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Matnni o'rganish nafaqat funksional, balki pragmatik jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin: Hozirga kelib matnlar materialdan tadqiqot ob'ektiga aylangan. Natijada matn tahlili (tekstual tahlil), matnshunoslik alohida va keng taraqqiy topib borishi, matn tadqiqida uning til yoki nutq tizimidagi o'rnini aniqlash, matn toifalarini ajratish muhim hisoblanadi. Bu esa matnning yaratilishiga ko'ra og'zaki yoxud yozma bo'lishidan qat'iy nazar, diaxron va sinxron bo'lishini ko'rsatadi. Matnlar katta-kichik, nasriy, she'riy, dramatik ko'rinishlarda bo'lishi, asosan, axborot berish vazifasini bajarishi kuzatiladi. Ular ilmiy, badiiy, publisistik ruhda bo'lishi bilan ham bir-biridan farqlanib turadi. Ma'no yaratuvchi tuzilmalarning o'zaro ta'siri sifatida

intertekstuallikning manbai madaniy (birinchi navbatda, adabiy va badiiy) va ijtimoiy-tarixiy kontekst bo'lishi mumkin. Post fol'klorda ham marosimlarga oid intermatnlar paydo bo'lmoqdaki, ularni ba'zan matnlarda qo'llanayotgan "begona", ya'ni o'zlashma so'zlar orqali ham anglash mumkin.

Matn to'liq ma'lumot va tizimli yaxlitlik sifatida qabul qilinishi lozim. Matn turlari rang-barang bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A.A. Sharq xalqi ijodi G'arb nazarida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 18 may, 1990. – 156 b.
2. Abazov Rafis. Culture and customs of the Central Asian Republics. London.: Greenwood Press. Westport, Connecticut. 2007. Chapter XIX. – 325p.
3. Abdullaev F. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. -Toshkent.: Fan, 1978. -86 b.
4. Abdurahmonov G'. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. – T.: 1999. - 56 b.
5. Jo'raev M. Yomg'ir yog'dirish marosimlari // O'zbek mavsumiy marosim fol'klori. – T.: Fan, 2008. – 160-185 b.
6. Jo'raev M. O'zbek mavsumiy marosim fol'klori. – T.: Fan, 2008. – 290 b.
7. Jo'raev M. O'zbek mifologiyasi va arab fol'klori. -Toshkent: Fan, 2001. - 234b.
8. Jo'raev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. – T.: Fan, 1993- 89b.
9. Mirzaeva Z. XX asr o'zbek adabiyotining Amerikada o'rganilishi. T. : Fan, 2011. - 78b.
10. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. -T.: Fan, 2005. -67b.
11. Safarov O. "Kelin o'tirsini" va "Kuyov o'tirsini" marosim qo'shiqlari // J. O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1989. - №5. – 35-39 b.
12. Safarov O. "Kuyov eltish", "Kelin eltish" udumlari va jarlar // J. O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 1991. - №6. – 35-39 b.
13. Xudoyqulova L. O'zbek fol'klorida Momolar kul'ti // O'zbek tili va adabiyoti, 2007. - №4, 50-53-betlar.
14. O'zbek dialektologiyasidan materiallar. 2-qism, -T.: Fan, 1960. - 96 b.
15. O'zbek milliy ensiklopediyasi, Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. T.: Fan, 2008. -29 b.